

**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligi**

# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI**

**2023- yil  
Iyun**




# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI)


**Iste‘mol narxlari indeksi (INI)** iste‘mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatorini sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## IYUN OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning iyuniga nisbatan



2023- yilning iyun oyida oylik INI **99,7 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **103,5 %** ni tashkil etdi. INI o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati joriy yilning yanvar-iyunida **0,6 %** ga yetdi.


Yillik nisbatda (o‘tgan yilning iyuniga nisbatan) yig‘ma INI **109,0 %** darajasida qayd etildi.

Yanvar-iyun oyidagi o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati, % da




## AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI

2023- yilning may oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>1</sup>



2023- yilning may oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>2</sup>



<sup>1</sup>) [https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC\\_HICP\\_MANR\\_\\_custom\\_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb](https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb)

<sup>2</sup>) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e‘lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste‘mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIning shakllantirishga “Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.



## IYUN OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

2023- yilning iyunida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **99,6 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa **100,2 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **103,6 %** va **102,9 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **109,4 %** va **108,0 %** ni tashkil etdi.


### TOVARLAR

### XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning iyuniga nisbatan



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi. Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA


JAMI **510**

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan.




● oziq-ovqat mahsulotlari    ● nooziq-ovqat mahsulotlar    ● xizmatlar


## iyun oyida o'tgan oyga nisbatan



## iyun oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## iyun oyida o'tgan yilning iyuniga nisbatan



2023- yilning iyunida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **98,9 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,4 %** ni va xizmatlar bo'yicha **100,2 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning I yarim yilligida INI oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **104,1 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlarda **103,1 %** ga va xizmatlar bo'yicha **102,9 %** ga yetdi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **110,5 %** va **107,9 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,0 %** darajasida qayd etildi.


# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARIDA 2023-YILNING YANVAR-IYUNIDAGI INI, % DA

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




2023- yilning iyunida oziq-ovqat mahsulotlari INI 100 % lik ko'rsatkichdan pastda qayd etildi. Bu asosan mavsumiylik omili oqibatida ayrim turdagi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining pasayishi bilan bog'liqdir.

## NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR



Shunga o'xshash holat, o'tgan yilning iyunidan tashqari, oldingi yillarning iyunida ham kuzatilgan. 2022- yilning iyunida oziq-ovqat mahsulotlari INI o'sish sur'ati **1,1 %** ga yetgan. 2022- yilning iyunidagi ushbu holat donli ekinlar va yorma mahsulotlari, un, go'sht, yog'-moy mahsulotlari, tuxum va shakar narxlarining oshishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu, meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy pasayishiga qaramay, guruh bo'yicha qisqa muddatli INI 100,0 % lik ko'rsatkichdan pasayishiga yo'l qo'ymadi.

## XIZMATLAR



- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



# MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da




iyun

oʻtgan oyga nisbatan




oʻtgan yilning dekabriga nisbatan

oʻtgan yilning iyuniga nisbatan




## YIGʻMA INI



## TOVARLAR



## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari oʻzgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning iyunidagi qisqa muddatli INI **100,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu koʻrsatkich **103,5 %** darajasida, 2022- yilning iyuniga nisbatan esa – **109,6 %** darajasida qayd etildi.

# ASOSIY GURUHLARDA NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI, f.d.

iyun oyida o'tgan oyga nisbatan

Jami ta'siri



2023- yilning iyunida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining pasayishi hisobiga oylik yig'ma INI **0,47 f.d.** pastladi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlarning narx o'zgarishlari jami hisobda yig'ma ko'rsatkichni **0,18 f.d.** oshirdi.

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

- 1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.





# ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

Ta'siri, f.d.



Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

iyun oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

iyun oyida o'tgan yilning iyuniga nisbatan





2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning I yarim yilligida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **1,72 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sir darajasining **49,9 %** i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiy ta'sir darajasidagi ulushi **30,7 %** ni (ta'siri **+1,06 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past darajada bo'lib, **0,67 f.d. (19,4 %)**ga yetdi. Yillik nisbatdagi yig'ma INI tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy ta'sir darajasining **49,5 %** i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **30,1 %** va xizmatlar hissasiga **20,4 %** to'g'ri keldi.

# MAQSADLAR BO‘YICHA INDIVIDUAL ISTE‘MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O‘ZR MIIT – 2018) BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a‘zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste‘mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

iyun oyida o‘tgan oyga nisbatan\*



\* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.


iyun oyida o'tgan oyga nisbatan




2023- yilning iyunida “Spirtsli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II), “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) va “Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar” (XII) bo'limlaridan tashqari barcha bo'limlarda oylik qisqa muddatli INI o'tgan yilning iyunidagi mos ko'rsatkichdan past bo'ldi.

iyun oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


## I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




## II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




## III. Kiyim va poyabzal




## IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari




## V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




## VI. Sog'liqni saqlash



## VII. Transport




## VIII. Axborot va aloqa




iyun oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


## IX. Dam olish, sport va madaniyat




## X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar




## XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



## XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar



## XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



**IZOH:** O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan.

“Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) va “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo'limlaridan boshqa barcha bo'limlarda 2023- yilning yanvar-iyunidagi INI o'tgan yilning mos ko'rsatkichidan past darajada bo'ldi.

# O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

iyun oyida o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

I. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR		II. SPIRTL ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI		III. KIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	<b>114,8</b>	2021- yil	<b>110,5</b>	2021- yil	<b>106,6</b>
2022- yil	<b>116,5</b>	2022- yil	<b>109,5</b>	2022- yil	<b>108,7</b>
2023- yil	<b>109,9</b>	2023- yil	<b>112,0</b>	2023- yil	<b>106,6</b>

IV. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI		V. UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH		VI. SOG‘LIQNI SAQLASH	
2021- yil	<b>106,7</b>	2021- yil	<b>107,5</b>	2021- yil	<b>110,8</b>
2022- yil	<b>103,7</b>	2022- yil	<b>111,3</b>	2022- yil	<b>110,9</b>
2023- yil	<b>104,7</b>	2023- yil	<b>109,1</b>	2023- yil	<b>115,4</b>

VII. TRANSPORT		VIII. AXBOROT VA ALOQA		IX. DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	<b>113,1</b>	2021- yil	<b>103,4</b>	2021- yil	<b>107,6</b>
2022- yil	<b>112,4</b>	2022- yil	<b>103,3</b>	2022- yil	<b>114,7</b>
2023- yil	<b>109,3</b>	2023- yil	<b>99,4</b>	2023- yil	<b>111,0</b>

X. TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		XI. RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		XII. SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR	
2021- yil	<b>103,8</b>	2021- yil	<b>114,2</b>	2021- yil	<b>103,5</b>
2022- yil	<b>107,7</b>	2022- yil	<b>118,5</b>	2022- yil	<b>100,7</b>
2023- yil	<b>102,8</b>	2023- yil	<b>126,2</b>	2023- yil	<b>104,3</b>

XIII. MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	<b>110,7</b>
2022- yil	<b>113,8</b>
2023- yil	<b>110,9</b>


2023- yilning iyun oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlar (**99,4 %**), ta‘lim (**102,8 %**) hamda sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlarda (**104,3 %**) qayd etildi.




# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

iyun oyida o‘tgan oyga nisbatan


Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




Go‘sh va go‘sh mahsulotlari




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar




Mevalar va yong‘oqlar




Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar







2023- yilning iyunida “Yog‘lar va moylar” (**98,7 %**), “Mevalar va yong‘oqlar” (**97,7 %**), “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**86,2 %**) guruhida 100 % ko‘rsatkichdan past qisqa muddatli INI qayd etildi.

Ikkita guruhda joriy yilning iyunidagi qisqa muddatli INI o‘tgan yildagi ko‘rsatkichdan ancha past bo‘ldi. Shunday qilib, donli ekinlar va yorma mahsulotlari bo‘yicha INI 2023- yilning iyunida **100,6 %** ni (o‘tgan yilning iyunida **109,3 %**), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlarda **100,7 %** ni (2022- yilning iyunida **107,6 %**) tashkil etdi.

# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

iyun oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



Yog‘-moy mahsulotlarining joriy yilning iyunidagi o‘rtacha narxlar darajasi o‘tgan oydagiki kabi 2022- yilning yakuniga nisbatan past bo‘ldi. “Yog‘lar va moylar” guruhi bo‘yicha INI 2023- yilning I yarim yilligida **93,9 %** ni tashkil etdi.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar bo‘yicha INI joriy yilning yanvar-iyunida **95,8 %** ni tashkil etdi.

# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

iyun oyida o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Go‘sh t mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.



## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- y. 2022- y. 2023- y.



## Yog‘lar va moylar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Mevalar va yong‘oqlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Spirtsiz ichimliklar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning iyunida “Go‘sh t mahsulotlari”, “Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum” guruhlaridan boshqa barcha guruhlarda yillik nisbatdagi INI o‘tgan yilning iyunidagi mos ko‘rsatkichga qaraganda past darajada bo‘ldi.


Shu bilan birga, joriy yilning iyunida mevalar va yong‘oqlar hamda yog‘lar va moylar narxlarining o‘rtacha darajasi 2022- yilning iyunidagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.

# 2023- YILNING IYUNIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

## Guruch va guruch oqshog'i




## Bug'doy uni




## Suyakli mol go'shti




## Qo'y go'shti




## Sut




## Tuxum



## Kungaboqar yog'i




## Shakar




## 2023- YILNING IYUNIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning iyuniga nisbatan




Joriy yilning iyun oyida bir qator sabzavotlar narxida pasayish kuzatildi. Narxlarida pasayish kuzatilgan tovarlarning INI diapazoni **52,7 %** dan (bulg'or qalampiri) **98,5 %** gacha (olma) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan kuzatiladigan sabzavot turlari orasida bodring narxida eng yuqori pasayish kuzatildi. Baqlajon yillik nisbatda eng past INI qayd etilgan mahsulot sifatida qayd etildi.



# 2023- YIL IYUN OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLER ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkalilar, mevalar va yong'oqlar, yog'lar va moylar, sut boshqa sut mahsulotlari va tuxum narxlarining pasayishi hisobiga joriy yilning iyunidagi qisqa muddatli yig'ma INI jami hisobda **0,74 f.d** pastladi. "Donli ekinlar va yorma mahsulotlari", "Go'sht mahsulotlari", "Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar", "Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar", "Spirtsiz ichimliklar" guruhlaridagi narxlarning oshishi inflyatsion omil sifatida xizmat qilib, ularning hisobiga yig'ma ko'rsatkich **0,20 f.d** yuqoriladi.

2023- yilning I yarim yilligidagi yig'ma INI o'sish sur'ati tuzilmasida go'sht mahsulotlari, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, mevalar va yong'oqlar hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar ta'siri salmoqli bo'ldi (jami ta'siri **+1,57 f.d**). Yog'-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar narxining pasayishi yig'ma INI **0,35 f.d** qisqarishiga sabab bo'ldi.



# “SPIRTLİ ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % DA


iyun

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## SPIRTLİ ICHIMLIKLAR



## TAMAKI MAHSULOTLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning iyuniga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>VINO</b>										
100,6	100,0	100,2	100,9	102,2	102,8	103,3	103,9	105,8	108,0	108,6
<b>AROQ</b>										
100,3	100,2	100,5	102,6	104,2	105,0	105,4	106,5	110,9	112,4	113,6
<b>KONYAK</b>										
100,1	100,2	100,3	101,9	103,0	104,8	102,3	106,1	107,3	107,5	110,8
<b>PIVO</b>										
100,5	100,6	100,2	102,0	103,5	103,5	104,0	105,2	106,1	107,1	112,0
<b>SIGARET</b>										
100,5	102,7	100,8	100,9	108,1	108,5	104,1	105,7	115,3	107,5	111,1
<b>BOSHQA TAMAKI MAHSULOTLARI</b>										
100,7	100,8	100,3	100,9	103,8	110,1	104,7	104,1	116,1	106,8	110,3

# “KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % DA

iyun

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## KIYIM



## POYABZAL



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning iyuniga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR</b>										
100,6	100,1	100,7	99,9	103,4	101,7	105,2	101,7	107,3	108,3	106,3
<b>USTKI KIYIM</b>										
100,5	100,2	100,7	100,3	103,5	101,7	104,5	102,1	106,9	108,7	106,7
<b>BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA</b>										
100,4	100,1	100,9	100,3	102,9	101,4	104,4	101,7	105,5	108,4	105,3
<b>KIYIMLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH</b>										
101,4	100,6	101,0	101,0	105,7	104,1	105,7	105,5	110,1	113,3	113,5
<b>BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR</b>										
100,3	100,1	100,5	100,2	102,6	101,4	105,1	101,7	105,3	108,3	105,9
<b>POYABZALLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH VA IJARAGA BERISH</b>										
101,4	100,4	101,2	100,4	108,7	104,9	105,6	106,4	116,3	113,6	116,1

Joriy yilning iyunida “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **99,5 %** dan (ayollar uchun shimlar va jinsilar) **101,6 %** gacha (qizlar uchun futbolklar) atrofida joylashdi.

# “TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % DA

iyun

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI\*



2020- yil

2021- yil **100,5**

2022- yil

2023- yil **100,2**

101,5

101,6 **108,9**

101,0 **124,0**

\*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



2020- yil **101,9**

2021- yil

2022- yil

2023- yil

**101,9**

**100,7**

**101,4**

**100,5**

**105,8**

**103,5** **109,9**

**106,4** **109,7**

**105,0** **110,5**

## SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



2020- yil

2021- yil

2022- yil

2023- yil

**100,3**

**100,0** **131,6**

**100,2**

**100,0**

**100,8**

**143,9**

**101,6** **102,3**

**101,7** **102,2**

## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



2020- yil

2021- yil

2022- yil

2023- yil

**100,0**

**100,0**

**100,0**

**100,0**

**100,0**

**100,0** **100,1**

**100,1** **100,1**

**100,0** **100,0**

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida asosiy turdagi kommunal xizmatlar bo‘yicha tariflar joriy yilning iyunida barqarorlikni saqlab qoldi. Shu bilan birga, turar joy ijarasi uchun to‘lov miqdori sezilarsiz darajada (**100,2 %**) oshgan bo‘lsa, turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlar o‘rtacha **0,5 %** ga qimmatlashdi. Ta‘mirlovchi ustalar xizmatlari bo‘yicha INI oy davomida **101,2 %** ga, qurilish materiallari bo‘yicha **100,3 %** ga yetdi.

# “UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % DA

iyun

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




## MAISHIY USKUNALAR




## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI




## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



Joriy yilning iyunida “Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **98,9 %** dan (kir yuvish mashinalari) **101,5 %** gacha (otvertka, ombir va b.) oraliqda joylashdi.

# “SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI), % DA


iyun

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan


## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



## STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



## SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha joriy yilning iyun oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,2 %** dan (antiseptik vositalar) **101,4 %** gacha (tibbiy diagnostika vositalari) oraliqda joylashdi.

Tibbiy niqoblar va qo‘lqoplar, bog‘lash uchun materiallar (**99,8 %**) hamda shpritslar (**99,9 %**) narxlarida oy davomida 100 % lik darajadan past INI qayd etildi.

# “TRANSPORT” BO‘LIMI (VII), % DA


iyun

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan


## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH



## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning iyunida respublikaning barcha hududlarida benzin narxlari oshdi. Ushbu yoqilg‘i turida INI mamlakat bo‘yicha o‘rtacha **102,2 %** darajasida qayd etildi.

Avtotransport vositalari uchun gaz yoqilg‘isi bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning iyunida **100,1 %** ni, shu jumladan, propanda **100,7 %**, metanda **99,95 %** ni tashkil etdi.

Respublikaning uchta hududida haydovchilarni tayyorlash kurslarida o‘qitish uchun to‘lov qiymatida pasayish qayd etildi. Ushbu xizmat turi bo‘yicha qisqa muddatli INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **98,6 %** darajasida shakllandi.

Havo va temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari iyun oyida arzonlashib, bu holat milliy valyutaning mustahkamlanishi bilan bog‘liq. Kuzatiladigan yo‘nalishlar bo‘yicha yo‘lovchi aviatashuvlari xizmatlari bo‘yicha INI **99,4 %**, temir yo‘l transporti xizmatlarida **99,9 %**, avtomobil transporti xizmatlarida **100,3 %** darajasida shakllandi.





iyun

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan


### AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



Axborot va kommunikatsiya uskunalari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning iyunida **99,9 %** darajasida qayd etildi.

Mazkur guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning iyun oyida **99,5 %** dan (mobil aloqa uskunalari) **100,8 %** gacha (perifirik uskunarlar va ularning sarflash komponentlari) oraliqda joylashdi.

### AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



Axborotlashtirish xizmatlari orasida joriy yilning iyunida narx o‘zgarishlari qisqa muddatli INI **101,2 %** ga yetgan axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarda hamda INI **97,9 %** ni tashkil etgan mobil aloqa xizmatlarida qayd etildi.


# “DAM OLIISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX), % DA

2023- yilning iyun oyi davomida “Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida narxlarning pasayishi maktab daftarlari (INI **99,8 %**), A4 formatidagi qog‘oz (**99,6 %**), foto va video xizmatlarida (**99,9 %**) qayd etildi.


Narxlarning oshishi kinoteatrlar (**104,8 %**), madaniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xizmatlar hamda istirohat bog‘lari xizmatlarida (**102,7 %**) kuzatildi. Boshqa xizmat turlaridagi narx tebranishlari past darajada bo‘ldi.




## DAM OLIISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## KOMPLEKS DAM OLIISHNI TASHKIL ETISH




## BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



## GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



## DAM OLIISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan   ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan   ■ o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

# “TA’LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO‘LIMI (X), % DA



iyun

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan



## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM



## OLIY TA’LIM



## BOSQICHLARGA BO‘LINMAGAN TA’LIM



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning iyuniga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari</b>										
-	100,1	100,8	100,4	-	103,2	102,0	100,6	-	103,4	103,1
<b>Repetitorlar xizmatlari</b>										
100,6	100,5	100,4	100,9	101,4	104,8	102,8	103,0	108,5	109,4	107,2
<b>Chet tili kurslari va shunga o‘xshash kurslarda o‘qish</b>										
100,1	100,1	101,7	100,2	102,1	103,6	105,4	101,5	108,9	115,1	108,4

Izoh: xususiy MTTlari xizmatlarining narx o‘zgarishi kuzatuvlari 2021- yildan tashkil etilgan.

Davlat MTTlari hamda oliy ta’lim sohasidagi xizmatlarning narxlari darajasida joriy yilning iyun oyida o‘zgarishlar kuzatilmadi.

# “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % DA


iyun

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## MEHMONXONALAR XIZMATLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning iyuniga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Kafelardagi tayyor taomlar</b>										
100,7	100,4	100,8	103,6	106,8	104,7	109,2	111,2	113,3	119,6	127,1
<b>Oshxonalar, kafeteriyalar va boshqa oshxonalaridagi tayyor taomlar</b>										
101,3	100,4	100,4	103,3	106,5	104,8	108,3	110,5	114,7	118,6	126,5
<b>Otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari</b>										
101,9	100,5	102,2	102,5	105,4	105,7	106,9	107,5	109,1	111,5	118,4
<b>Dam olish maskanlari va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari</b>										
101,6	100,0	102,7	100,0	113,7	117,3	115,3	124,3	122,4	116,1	124,9

Umumiy ovqatlanish sohasida joriy yilning iyun oyidagi qisqa muddatli INI **103,4%** ni tashkil etdi va narx o‘shishi barcha hududlarda qayd etildi.

Mehmonxonalar xizmati narxlari respublikaning beshta hududida (**1,2-9,0%** chegarasida), dam olish markazlari xizmati narxlari barqarorlikni saqlab qoldi.

# “SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % DA



## SUG‘URTA

iyun	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning iyuniga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	100,0	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0	100,0

## MOLIYAVIY XIZMATLAR



iyun	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning iyuniga nisbatan
2020- yil	100,1	102,1	
2021- yil	100,2	101,6	106,3
2022- yil	99,6	102,1	101,3
2023- yil	101,3	101,6	108,4

Joriy yilning iyunida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozoridagi narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida narxlarning sezilarsiz tebranishlari ayrim turdagi bank muassasalari xizmatlarida qayd etilib, qisqa muddatli INI **100,9 %** ni hamda pul

mablag‘larini banklar (**100,4 %**) va elektron to‘lov tizimlari orqali o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarda (**104,6 %**) qayd etildi.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % DA


o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

iyun

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




Joriy yilning iyunida guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,7 %** dan (tish chotkalarini), **101,6 %** gacha (tualet qog‘ozini) oraliqda joylashdi.

## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning iyunida **99,8 %** dan (maktab sumkalari, ryukzaklari), **101,0 %** gacha (jamadonlar va yo‘l uchun sumkalar) oraliqda joylashdi.

## BOSHQA XIZMATLAR



Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning iyunida narxlar oshishi nusxa ko‘chirish bo‘yicha (**100,6 %**) va diniy xizmatlarda (**100,5 %**) qayd etildi.



Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta‘sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.


**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

Oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta‘siri, f.d.



Jami ta‘siri **-0,29 f.d.**

## 2023- YIL IYUN OYIDA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	1,51
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	0,05
Kiyim va poyabzal	0,24
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	0,20
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	0,25
Sog‘liqni saqlash	0,38
Transport	0,26
Axborot va aloqa	-0,02
Dam olish, sport va madaniyat	0,14
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,21
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,23

Jami ta’siri **+3,45 f.d.**

Joriy yilning iyun oyida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘rtacha darajasining pasayishi qisqa muddatli yig‘ma INI **0,54 f.d.** kamayishiga sabab bo‘ldi.

Oylik yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur‘atiga restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (**+0,06 f.d.**), hamda transport sohasidagi xizmatlar narxi (**+0,04 n.n.**) o‘zgarishlari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2023- yilning I yarim yilligidagi yig‘ma INI **1,51 f.d.** o‘sdi, transport va sog‘liqni saqlash sohaslarida, kiyimlar va poyabzallar, uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatishda narxlar o‘zgarishi yig‘ma ko‘rsatkichga **1,13 f.d.** qo‘shdi.

Boshqa bo‘limlarning ta’siri past darajada bo‘ldi.

## 2023- YIL IYUN OYIDA O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

o‘tgan yilning iyuniga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	<b>3,94</b>
Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari	<b>0,11</b>
Kiyim va poyabzal	<b>0,77</b>
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	<b>0,48</b>
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	<b>0,66</b>
Sog‘liqni saqlash	<b>1,01</b>
Transport	<b>0,76</b>
Axborot va aloqa	<b>-0,02</b>
Dam olish, sport va madaniyat	<b>0,26</b>
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	<b>0,06</b>
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	<b>0,50</b>
Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	<b>0,02</b>
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	<b>0,48</b>

**Jami ta’siri +9,03 f.d.**

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari tebranishi hisobiga 2023- yilning iyunida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy **9,03 f.d.** o‘shish sur‘atiga **3,94 f.d.** ta’sir etdi. Shu tariqa, ushbu bo‘lim hissasiga

kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta’sirining **43,6 %** i to‘g‘ri keldi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlarining jami ta’siri **5,09 f.d.**, yoki **56,4 %** ni tashkil etdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,  
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74